

TERI LEYSHMANIOZI-SIMPTOMLARI VA PROFILAKTIKASI

Djamilova M.D.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Sanoyeva M.F.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Ruziqulova N.A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Leishmanioz transmissiv yo‘l bilan yuquvchi kasallik hisoblanadi. U dunyoning 88 ta davlatida keng tarqalgan, asosan tropik hamda subtropik iqlim mintaqalarda uchraydi. U janubiy hududlarda, ayniqsa Afg‘onistonda keng tarqalgan, shu sababli mahalliy aholi tomonidan "afg‘on yarasi" deb ham ataladi. Teri leishmaniozi bilan kasallanish aniq fasliy muddat bilan belgilanadi. Bu vaqt iskabtopar chivinlarning faol yashash vaqtiga ya‘ni iyun, iyul, sentabr, oktabr oylariga to‘g‘ri keladi.

Kalit so‘zlar. Leishmaniya, yara, Phlebotomus avlodi, Leishmania donovani, Leishmania tropica.

Leishmaniozning teri shakli birinchi marta ingliz shifokori Rososke (1745) tomonidan ta‘riflab berilgan. Kasallikning klinik ko‘rinishi aka-uka Russel (1756), rus harbiy shifokorlari N.A. Arendt (1862) va L.L. Geydenrayx (1888) larining ishlarida yoritilgan. Teri leishmaniozining qo‘zg‘atuvchisini rus harbiy shifokori P.F. Borovskiy (1898) aniqlagan. 1900-1903 yillarda W.B. Leishman va S. Donovanilar hind leishmaniozi bilan og‘rigan bemorlar talog‘ida visseral leishmanioz qo‘zg‘atuvchisini topishgan. Uni A. Laveran va F. Mesnil (1903) L.donovani, teri leishmaniozining qo‘zg‘atuvchisi esa L.tropica nomi bilan atalgan. Leishmaniozning chivinlar tomonidan tarqalish ehtimolini Pressot (1905) bayon qilgan. Leishmanioz kasalligi Phlebotomus avlodiga mansub chivinlar orqali yuqadi. O‘zbekistondagi ZTLning eng faol tabiiy 5 ta uchoqlari: Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida uchraydi.

Etiologiya va patogenez. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi Sarcomastigophora turkumiga, Tripanosomatidae oilasiga, Leishmania avlogiga mansub bo‘lib, hujayra ichi parazit hisoblanadi. Parazitning hayot sikli ikki bosqichdan iborat, xo‘jayinlarning o‘zgarishi bilan ajralib turadi: hayvonlar va odamlar tanasida -amastigota (xivchinsiz, hujayra ichidagi), tashuvchining tanasida promastigota (xivchinli). Epidemiologiya va klinikasining xususiyatlariga ko‘ra, uchta turi ma‘lum: zoonotik (qishloq), antroponotik (shahar) va amerikalik (ikkinchisi nafaqat teri, balki shilliq qavatlarga ham zararlanadi). Inkubatsiya davri 2 oydan 8 oygacha davom etadi, zoonotik tip va Penden yarasi uchun - bir necha kundan 3 haftagacha cho‘ziladi.

Klinikasi. Chivin chaqqan joyda diametri 2-3 mm bo‘lgan va hajmi kattalashadigan dumboqcha hosil bo‘ladi. Uni qoplab turuvchi terining rangi jigarrang-qizil rangga aylanadi. 3-6 oydan so‘ng qobiq hosil bo‘ladi. Yara ustidagi qobiq olib tashlanganda, krater kurinishidagi yiringli yarani aniqlash mumkin. Yara atrofida infiltrat mavjud bo‘lib, uning parchalanishidan keyin yaraning hajmi kattalashadi, uning qirralari buziladi, notekis shaklda bo‘ladi. Chandiq hosil bo‘lishi asta-sekin sodir bo‘ladi va bir yil yoki 1,5-2 yilgacha cho‘ziladi. Yara o‘rnida dastlab pushti, keyin oqish xira, atrofik ko‘rinishdagi chandiq qoladi. Yaralar soni 1-3 (kamdan-kam hollarda 10 tagacha), ular chivin chaqishi mumkin bo‘lgan terining ochiq joylarida (yuz, qo‘llar) joylashgan.

Leishmaniozning zoonotik turida ("Penden yarasi") do'mboqcha va yaralar soni (ba'zan diametri 5 sm gacha) o'nlab yoki undan ko'p bo'lishi mumkin. Ulardan ko'p miqdorda seroz-yiringli ajralma ajraladi. Uchinchi oyga kelib, yaralar tozalanadi va ularning markaz qismidan epiteliy bilan qoplanishi kuzatiladi. Yaralar 5 oyda keyin bitib, tuzalib ketadi.

Diagnostikasi. Teri leishmaniozini aniqlashda dermatoskopiya, biopsiya materialining mikroskopiyasi, surtmalar, PSR, serologik tahlillar qo'llaniladi.

Profilaktikasi. Teri leishmaniozida profilaktik chora-tadbirlar 3 bosqichni tashkil etadi. Bularning birinchisi kasallik manbai, ikkinchisi tashuvchisi va uchinchisi esa yuqtiradigan ob'ekt hisoblanadi. Teri leishmaniozining antropoz tipida kasal odamlarni aniqlash va davolash asosiy profilaktik tadbir hisoblanadi. Bundan tashqari, profilaktik tadbirlarga aholi punktlarida chivinlar ko'payish joylarini insektitsidlar bilan dezinfektsiya qilish, iskaptoparlar hujumidan individual himoyalash, deraza va eshiklarga maxsus to'rlar qoplash, aholi turar joylarining sanitariya holatini yaxshilash kiradi.

Adabiyotlar

1. Заславский Д. В., Андриенко Е. М., Александрова И. Ю. Верификация лейшманиоза кожи. Вестник дерматологии и венерологии. 2013. С. 91-95.
2. Khidirov Yu.A., Shomurodov R.M., Mansurov S.T. Blood Indications In Echinococcosis Of Large Horned Animals //The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery (ISSN– 2689-0968) Published: February 27, 2021 Pages: 9-15
3. Turakulova, M., & Ruzikulova, N. (2023). THE SIGNIFICANCE OF DIDACTIC GAMES IN ASSESSING STUDENTS'KNOWLEDGE. *Science and innovation*, 2(B3), 65-67.
4. NA, R. (2023). Information on the Reproductive Cycle of *Costatela acuta* (Draparuand, 1805). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, (2).
5. Иззатуллаев, З. И., & Рузикулова, Н. А. (2020). Особенности экологии и жизненных циклов водных моллюсков Средней Азии. *Бюллетень Дальневосточного малакологического общества*, 24(1/2), 37-52.
6. Рузикулова, Н. А. (2024). ҚУРУҚЛИК ҚОРИНОЁҚЛИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИНГ ШАҲАР БИОТОПЛАРИ БЎЙИЧА ТАРҚАЛИШИ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 112-117.
7. Рузикулова, Н. А. (2021). ФАУНА НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ НЕКОТОРЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. In *Обмен научными знаниями в условиях глобализации* (pp. 169-171).
8. Ruzikulova, N., & Bozorova, U. (2023). Use of PISA tests in teaching biological sciences. *Science and innovation*, 2(B2), 277-281.
9. Axatova, G. A., & Ruzikulova, N. A. (2024). GELMINTOZ KASALLIKLAR VA ULARNING PROFILAKTIKASI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 222-223.
10. Рузикулова, Н. А. (2024). ҚУРУҚЛИК ҚОРИНОЁҚЛИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИНГ ШАҲАР БИОТОПЛАРИ БЎЙИЧА ТАРҚАЛИШИ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 112-117.
11. Farrukh S. ORGANIZATION OF DIGITALIZED MEDICINE AND HEALTH ACADEMY AND ITS SIGNIFICANCE IN MEDICINE //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 8. – С. 493-499.

12. Рузикулова, Н. А. (2021). ФАУНА НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ НЕКОТОРЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. In *Обмен научными знаниями в условиях глобализации* (pp. 169-171).
13. Рузикулова, Н. А. (2024). ҚУРУҚЛИК ҚОРИНОЁҚЛИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИНГ ШАҲАР БИОТОПЛАРИ БЎЙИЧА ТАРҚАЛИШИ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 112-117.
14. Bahriyeva, G. N., & Ruzikulova, N. A. (2024). ZOOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA AMALIY VA KO 'RGAZMALI USLUBLARNING SAMARADORLIGI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 107-111.
15. Gaibnazarova, F., Ruzikulova, N., Safarova, N., Khakberdiyeva, K., & Musabekov, U. (2024). Conchological variation of widely common species of terrestrial mollusks of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 494, p. 01021). EDP Sciences.
16. Sanoyeva, M. F., Djamilova, M. D., & Ruzikulova, N. A. (2024). PARAZITAR KASALLIKLARNING DIAGNOSTIKASI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 315-316.